

MUHAMMAD SODIQ QOSHG‘ARIYNING “ODOB AS-SOLIHIN” ASARI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Narziyeva Zarrina Abduxalimovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari va uning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Asarda insonning kundalik hayotida zarur bo‘lgan axloqiy me‘yorlar, odob-axloq qoidalari, muomala madaniyati keng bayon etilgan. Muallif tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar yoshlarni barkamol, ma‘naviy yetuk va axloqan pok inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, asarning Sharq pedagogik merosidagi o‘rni va bugungi ta‘lim-tarbiya jarayonidagi dolzarbligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy, Odob as-solihin, axloqiy tarbiya, ma‘naviy tarbiya, odob-axloq, komil inson, sharq pedagogikasi, muomala madaniyati, insoniy fazilatlar, tarbiyaviy meros.

Аннотация. В данной статье рассматривается произведение Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy «Odob as-solihin» и его воспитательное значение. В работе раскрываются нормы нравственности, правила поведения и культура общения, необходимые в повседневной жизни человека. Идеи автора направлены на формирование гармонично развитой, духовно зрелой и нравственно чистой личности. Также анализируется роль данного произведения в восточной педагогической традиции и его актуальность в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy, Odob as-solihin, нравственное воспитание, духовное воспитание, этика, гармоничная личность, восточная педагогика, культура общения, человеческие качества, педагогическое наследие.

Abstract. This article examines the work “Odob as-solihin” by Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy and its educational significance. The book highlights moral norms, ethical behavior, and communication culture necessary for everyday life. The author’s ideas contribute to the upbringing of a morally mature, spiritually developed, and well-rounded individual. The study also analyzes the role of this work in Eastern pedagogical heritage and its relevance in modern education.

Keywords: Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy, Odob as-solihin, moral education, spiritual education, ethics, well-rounded personality, Eastern pedagogy, communication culture, human values, educational heritage.

Kirish. Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy meros xalqimizning axloqiy tafakkuri, tarbiyaviy qarashlari va komil insonni voyaga yetkazish haqidagi tasavvurlarini boyitishda muhim o‘rin tutadi. Ana shunday nodir asarlardan biri Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asaridir. Mazkur asar o‘zining mazmun-mohiyati, pand-nasihatlarga boyligi hamda inson xulq-atvori, odob-axloqi, muomala madaniyatini yoritib berishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy (1740-1843) Qoshg‘arda kambag‘al dehqon oilasida tug‘iladi. Uning qoldirgan merosidan pedagog-olim ekanligini bilib olamiz. Uning "Odob as-solihin" (Yaxshi kishilar odobi), "Zubdat al - masoyil" (Masalalarning qaymog‘i), "Kumakdoshlarning durdonasi", "Xojalar tazkirasi" asarlari bizgacha yetib kelgan.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning "Odob as-solihin" ("Solihlar odobi") asari XVIII-XIX asrlar sharq islomiy pedagogikasining nodir namunasi bo‘lib, insonni ma‘naviy yetuklikka, yuksak axloq va shariat qoidalariga amal qilishga o‘rgatadi. Asar

tarbiyaviy ahamiyati bilan shaxsni pokiza yashashga, halollikka va nafsni jilovlashga chorlaydi.

"Odob as-solihin" asarining asosiy tarbiyaviy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Axloqiy tarbiya: Asarda ota-onaga hurmat, kattalarga izzat, kichiklarga shafqat, qo'shnichilik haqlari va do'stlik odoblari batafsil yoritilgan.

Shaxsiy komillik: Nafs tarbiyasi, kibr, hasad, g'iybat kabi illatlardan xalos bo'lish va tavozeli (kamtar) bo'lish yo'llari o'rgatiladi.

Shariat qoidalarini o'rgatish: Kundalik hayot, ovqatlanish, uxlash, kiyinish, safar odoblari kabi mavzular orqali islomiy turmush tarzi tushuntirilgan.

Ijtimoiy uyg'unlik: Halol mehnat, omonatdorlik, to'g'riso'zlik va jamiyatda o'zaro ahillikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda "Odob as-solihin" asari mazmuni tarixiy-pedagogik hamda tizimli-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Ilmiy izlanish jarayonida qiyosiy tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanilib, Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning tarbiyaviy qarashlari Sharq pedagogik merosi namunalari bilan solishtirildi. Shuningdek, asardagi axloqiy g'oyalar umumlashtirilib, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tahlillar va natijalar. "Odob as-solihin" muqaddima, 7 bob hamda har bir bob 4 fasldan iborat. Asarda odob qoidalari: salomlashish va ruxsat surash, muloqot odobi, uxlash va yo'l yurish, suhbatda o'zini tutish, er-xotin odobi, tozaliq qoidalari, mehmon kutish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.

"Zubdat al-masoyil» («Masalalarning qaymog'i») asarlari turkiy tilda yaratildi. U 5 marta: Toshkentda 1889, 1901-yillar va Istanbulda 1891-92, 1986 yillarda qayta nashr etilgan. Mazkur asar mazmuni, nomidan ham ko'rinib turganidek, insonning hayoti davomida zarur xulq-odob qoidalariga o'rgatish g'oyasi ilgari suriladi. Unda kundalik turmushimizda har bir yosh egallab olishi zarur bo'lgan zoxiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va ahloq qoidalari nimalardan iborat bo'lishi zarurligi va shunda bularning (tolib sodiqlarning) ham o'sib, barkamol inson darajasiga yetishishi ta'kidlanadi. Muhammad Qoshg'ariyning «Odob as-Solihin» asari muallifining o'zi ta'kidlaganidek, muqaddima va 7 bobdan hamda har bir bob 4 fasldan iborat.

Har bir inson odobi zoxiriy hamda odobi botiniyni bilib, unga amal qilishi zarurligi va u odob qoidalarini mu'tabar kitoblardan jam etganligini. So'ng yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonning barkamol bo'lib yetishishida kundalik turmushida zarur zoxiriy va botiniy odob qoidalari: salomlashish va ruhsat so'rash, muloqat odobi, uxlash va yo'l yurish, suhbat axlining o'zini to'tishi, er-xotin odobi, tozalik va ozodalik qoidalari, mehmon ko'tish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.

Birinchi bob ruxsat so'rash va salomlashish, ko'rishish, qo'l olishish haqida bo'lib, u 4 fasldan iborat.

Ma'lumki, sharq halqlarida biror kimsa birorta uyga kirganda u yerga ruhsatsiz kirib boravermay, ma'lum urf-odat qoidalariga rioya qiladi. Ana shu qoidalarining eng muhimlari, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy har bir odam kelganligini bildirish (eshikni qoqish yoki yo'talish), ovoz berilgandan so'ng ichkariga kirishga ruhsat so'rash va so'ng kirish kerakligi bayon etiladi.

Ikkinchi faslda esa salomlashishning 12 odob qoidasi haqida fikr yuritiladi. SHunda salom berish va javobi masalasida hozirgi paytda ham yuz berayotgan munozarali fikrlarga nuqta qo'ygandek bo'ladi. Muallif aytishicha, adabi avval 2 mo'min kishi kelsalar xox oshno xox nooshno, salom berishgaylarki, salom berish sunnatdir, javobi farzi ayndir, deydi.

Mazkur bobda yana salomlashishidagi xatti harakattalar, jismonan zaif kishilar va salomlashish qoidalari, erkak va xotin-qizlarning salomlashish qoidalari, salom bermaslik va xotin-qizlarning salomlashish qoidalari, salom bermaslik va javob qaytarmaslik haqida ham hozirgi davr uchun muhim tavsiyalar mavjud.

Birinchi bobning uchunchi faslida berilgan muloqat (uchrashuv) odbiga oid tavsiyalar ham diqqatga sazovar. Bunda uchrashganda qo'l berib ko'rishish, lekin qo'l uchida emas, astoydil, lekin qo'lni silamay, ochiq yuz bilan ko'rishish bayon etiladi.

Ikkinchi bobda uxlamoq kiyim kiyish, yo'l yurish odoblari xaqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan eshiklarni mahkamlash, idishlarni og'zini yopish, o'rindagi ko'rpani qoqib yozish, o't, chiroqni o'chirish, uxlaydigan o'rinni yumshoq qilmaslik o'ng qo'lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, bu qoidalarga rioya qilmaslik natijasida ko'plab noxush voqealar ro'y berishrganligi aytiladi. Libos kiyish qodalari ham xulq- odob qoidalarining tarkibiy qismi sanaladi. Bunda eng muhimlaridan kishi imkon darajasida kiyinishi lozimligi, qulayligi va yoshi, jinsiga, joyiga, fasliga mos bo'lishi, uni toza tutish, yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik, kiymaydigan ortiqcha liboslaridan muhtojlarga in'om qilish kabi tavsiyalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yo'l yurish qoidalari har bir inson uchun bo'lishi zarur bo'lgan qoidalar bo'lib, bu xaqda quyidagilar: yo'lda yurganda me'yorida qadam tashlash, atrofga alanglamaslik, jamoat joylarida boshqalarga ozor berishmaslik, keksalardan keyin yurish, o'ztozlar bilan birga ketayotganda ularning hurmatini saqlash, yo'lda hamkorlari bo'lsa ular bilan birga ketishlik, yo'lda esa biror kishi bilan uchrashib qolsa, salomlashib, tez o'tib ketish, agar zarur bo'lsa biror chekkaga chiqib so'zlashish, yo'lda og'iz suvi yoki balg'amni to'pursa yuzini berkitish, uni o'ng tomonga yoki oldiga emas, chap tomonga yoki orqasiga tashlash, yo'lda yordamga muxtojlariga yordam berish, kishilarga aziyat yetkazadigan narsalarni olib tashlash, mazlumlar g'am anduxlariga sherik bo'lib ularga yordam berish, yaxshi ishni ma'qullab, yomon ishdan qaytarish kabilar bayon etiladiki, Bularni bilish katta-yu kichikka birdek zarurdir.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi bayon etiladiki, bu odob qoidalariga inson har bir daqiqada rioya etishi zarur.

Er kishi xotiniga yaxshi muomala qilishi, uni bexuda g‘azablantirmasligi, olijanob bo‘lishi, muruvvat ko‘rsatishi, xavoyi nafs balosidan saqlanishi, agar ayol takkabur va jafo ko‘rsatsa, unga avval nasihat qilib adab berishrishi, yaxshi tomonga yuz tutsa avf etishi zarurligi bayon etiladi. Xotin esa erining ruhsatisiz hech joyga bormasligi va hech kimni uyga keltirmasligi, erining mol dunyosini sarf etmasligi, o‘z mas‘ulyatini bajarishi, eri xursand bo‘lsa-xursand, g‘amgin bo‘lsa - g‘amgin bo‘lishi, erining topish-tutishiga qanoat qilish, er vafot etganda motam tutib marhumning ruhini pok saqlash xaqida ibratli pandlar bayon etiladiki, bu narsalar hozirgi kunda ham dolzarbdir.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy «Odob as-solixin» asarida, kasal holini so‘rash, ta‘zim va musibat odoblari xaqida ham fikr yuritadi. Bu narsalarni har bir kishining bilishi muhimdir. Bemor ham o‘z navbatida kasalidan nolishi mumkinligini, og‘ir dardga chalinganda o‘ziga o‘lim tilamasdan umr tilashi, og‘irlashgani sezila boshlaganda gunohlaridan tavba qilib, qarzlarni ado etib, farzandlarini, qarindosh va do‘stlaridan rozilik so‘rashi va vasiyat qilishi hamda ularga sabr qanoat tilashi eng muhim qoidalar ekanligi takidlangan. Asarda musibat odoblari haqida ham bayon etilganki, Bularni bilish, ayniqsa yoshlarga zarurdir. Asarda ziyofat, mehmondorchilik odobi xaqida ham ko‘pgina ibratli gaplar yozib qoldirilgan. Jumladan mehmondorchilik odobi xaqida quyidagilar ifodalanadi. Asarda mehmoning ham sohibi xonodonga qiladigan odob qoidalari xaqida ham batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Yettinchi bobda eng zaruriy safar qoidalariga to‘xtalib o‘tiladi. Safar qilishni olim uch qismga bo‘ladi: farz, fazilat, muboh (ruxsat etiladigan). Bundan safar farzining o‘zini besh bo‘g‘inga bo‘ladi: jihod, hajji farz, ota va ona chaqirig‘iga binoan, raddi mazolim (zulmni qaytarish uchun) va beshinchisi ilm olish uchun safar qilish.

Safar mubohni ham ikki bo‘g‘inga bo‘ladi: birinchisi, o‘z manfaati yo‘lida birovdan ta‘ma qilmaydigan tijorat safari; agar kim tijoratda faqat mol-dunyo orttirish maqsadida bo‘lsa, unda bu tijorat safari ham unga ziyon etkazadi, deydi olim. Ikkinchi, ma‘naviy tafarruj (ko‘ngil ochish) uchun safar qilish. Ba‘zida bunday safarlarning ham joizligi ta‘kidlanadi. Ammo safarlarning barchasida ?h m ayollarga albatta mahrumib haromlik qilishi zarur, deb hisoblaydi.

So‘ng olim safarlarning foydalari haqida og‘iz ochadi, unda safar qilgan kishi birinchidan, ham-anduhdan forig‘ bo‘lishi, ikkinchidan tirikchilik uchun sarmoya yig‘ish, uchinchidan ilm olish, to‘rtinchidan, to‘liq odob va axloq o‘rganish, beshinchidan, ulug‘ kishilarning suxbatlaridan baxramand bo‘lish mumkin deyiladi. Olim safarning ba‘zan mashaqqatlari xam bo‘lishi mumkin degan savolga yoshlarga chaqimchi va xasadchilar orasida tirik yurgandan ko‘ra, safar mashaqqatlari afzalroqdir, deb to‘g‘ri xulosa chiqaradi. Mazkur bobda safar odobi xaqida fikr yuritiladiki, bu quyidagilardan iboratdir:

Safarga xech qachon tanxo chiqmaslik, eng kami uch kishi safar qilishi, ko‘pchilik bo‘lsa, bir-biriga yain manzilga tushish, bir gurux bo‘lib safarga chiqqanda o‘rtalaridan biror kishini boshliq etib, uning maslaxati bilan ish tutish va boshliqning xam o‘z

xizmatini boshqalardan ayamasligi, zaifu notavonlar xamrox bo'lsa, ularga madadkor bo'lish xam eng muxim safar odoblari sifatida bayon etiladi. Safarga eng zarur ashyolarni, ya'ni lobos, oyoq kiyimi, soqoltarosh, misvoq (tish tozalagich), qaychi va boshqalarni unutmastlik, borayotgan shaxrida biror yuqumli kasallik tarqalgan bo'lsa, u shaxarga kirmastlik, agar shaxarga kirgandan so'ng kasallik tarqalsa, u erdan chiqib ketmastlik kerakki, aks xolda kasallik tarqatuvchi o'zi bo'lib qolishi mumkin.

Safardan qaytganda to'satdan uyga kirib bormay, avval uydagilarni xabardor etish, kechasi kirib borish xam noloyiq xisoblanadi. Safardan qaytganda xonadondagilar va qarindosh, yor-do'stlarga sovg'alar ulashish, uni ko'rgani kelganlarni taom bilan siylash xam muximdir. Agar xabar kelsa, musofirni kutib olishga peshvoz chiqish, uni xurmat bilan kutib olish, uni so'roqqa tutmastlik, musofir xoxishini farosat bilan bilib olish, uning manzili, yotish-turishi, yeyish-ichishidan xabardor bo'lib turish, agar sayoxat qilish xoxishi bo'lsa, diqqatga sazovor joylarni ko'rsatish, uning kelishidan maqsadini bilish, yordam qilish kabi eng oddiy odob qoidalari xam bayon etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Muhammad Sodik Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asari yoshlarning barkamol, ma'naviy yuksak yetuk axloqli bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar kundalik turmushimizda har kuni, har daqiqada bilish zarur bo'lgan turmush odobiga oid xulq- odob qoidalarining majmuidir. Shuning uchun ham Sharq pedagogikasi tarixida «Qobusnoma» kabi bu asar ham, o'z o'zni, o'z mavqeiga ega. Bu asarni bobma - bob o'rganish yosh avlodning ma'naviy kamol topishiga foydalaniladigan berish baho xazinadir, deyish joiz.

Qoshg'ariy ushbu asarida tasavvufiy qarashlarni oddiy xalq tushunadigan tilda, hayotiy misollar va hadislar orqali bayon etgan. Bu esa uni yoshlarni axloqli, insofli va diyonatli qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma sifatida qadrlash imkonini beradi.

Shuningdek, «Odob as-solihin» asari milliy pedagogik merosimizning bebaho namunasi sifatida o'zbek xalqining qadimiy tarbiyaviy an'analari, axloqiy qarashlari va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu bois ushbu asarni chuqur o'rganish, uning tarbiyaviy g'oyalarini ta'lim jarayoniga singdirish va yoshlar ongiga yetkazish bugungi pedagogika oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Sodik Qoshg'ariy. Odob as-solihin. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2007.
2. Muhammad Sodik Qoshg'ariy. Zubdat al-masoyil. – Toshkent: Movarounnahr, 2005.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Sharq mutafakkirlari merosi va zamonaviy ta'lim. – Toshkent: Fan, 2015.